

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISMATULLOYEV ABDULLO NASRULLOYEVICH

**TALABALAR O‘QUV MOTIVI VA MUVAFFAQIYATIGA LOKUS
NAZORATNING PSIXOLOGIK TA‘SIRI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich

Talabalar o'quv motivi va muvaffaqiyatiga lokus nazoratning psixologik ta'siri.....3

Исмагуллоев Абдулло Насруллоевич

Психологическое влияние локуса контроля на учебную мотивацию и успешность студентов.....21

Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich

The Psychological Impact of Locus of Control on Students' Academic Motivation and Achievement.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISMATULLOYEV ABDULLO NASRULLOYEVICH

**TALABALAR O‘QUV MOTIVI VA MUVAFFAQIYATIGA LOKUS
NAZORATNING PSIXOLOGIK TA’SIRI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2025.2.PhD/P.2061 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Bafayev Muxiddin Muxammadovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Abdurasulov Rustam Abdurahimovich**
psixologiya fanlari doktori, professor

Haydarov Fazliddin Ikramovich
psixologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « ____ » ____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « ____ » _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.T.Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim va ilm-fan sohasidagi jadal o'zgarishlar inson psixologiyasini yanada chuqurroq o'rganish zaruratini kun tartibiga qo'ymoqda. Shaxsning motivatsiyasi va muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi muhim psixologik omillardan biri sifatida lokus nazorati jahon ilmiy hamjamiyatida tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (APA) ma'lumotlariga ko'ra, ichki lokus nazoratga ega shaxslar o'z harakatlari uchun yuqori darajada mas'uliyat sezadilar, bu esa ularning akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi¹. APA tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ichki lokus nazorat va akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi sezilarli bog'liqlikni tasdiqlaydi, chunki ichki lokus nazoratga ega shaxslar yutuqlarini shaxsiy sa'y-harakatlari bilan bog'lashga moyildirlar. Shu bois, ta'lim jarayonida ichki lokus nazoratining shakllanishi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki akademik muvaffaqiyat va kasbiy kompetensiyalarni oshirishda ham muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda va mazkur muammoni ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida talabalar o'quv motivi va muvaffaqiyatiga lokus nazoratning psixologik ta'sirini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Xitoy, AQSh va Yevropa davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, ichki lokus nazoratiga ega talabalar mustaqil qaror qabul qilishga moyil bo'lib, o'z bilim va yutuqlarini shaxsiy sa'y-harakatlari bilan bog'lashga intiladilar. Bu esa ularning o'quv jarayoniga nisbatan mas'uliyatini oshiradi va akademik samaradorlikni yaxshilaydi. Stanford universitetida olib borilgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, psixologik treninglar ta'sirida talabalarning ichki lokus nazorati sezilarli darajada rivojlangan². Bu borada, talabalar o'quv motivi va muvaffaqiyatiga lokus nazoratning psixologik ta'siri muammosining dolzarbligi yanada ortadi va alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, talaba-yoshlarning bilim va iste'dodlarini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari aniqlanib, zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish»³ ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgandir. Mazkur yondashuvga ko'ra, shaxs o'quv jarayonida motivatsiya va muvaffaqiyatni oshirishda ichki lokus nazoratini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun asos yaratildi. Shu boisdan, mazkur mavzuni tadqiq etish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodning akademik yutuqlari va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga, shuningdek,

¹ American Psychological Association. Developing internal locus of control: the key to motivating students. <https://www.apa.org/education-career/k12/learners>

² Stanford Education. Locus of control and education. <https://ed.stanford.edu/news/study-finds-student-motivation-boosted-psychological-interventions>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

jamiyatning psixologik salohiyatini rivojlantirish va umumiy ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2018-yil 27-iyuldagi RF-5466-son «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol yetib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, G.B.Amirova, X.K.Bekchanov, U.A.Butayeva, A.A.Fayzullayev, F.I.Haydarov, A.M.Jabborov, M.A.Jabborova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.Z.Ismoilova, B.R.Qodirov, A.Q.Saitova, N.Sh.Yuldasheva, R.Z.G‘aynutdinov, E.G‘.G‘oziyev, D.Shokirov va boshqalar tomonidan lokus nazorat va motivatsiya sohasida qator tadqiqotlar olib borib, ichki va tashqi lokus nazorat omillari hamda motivatsion jarayonlarning turli jihatlarini chuqur tahlil etilgan. Lekin, talabalar muvaffaqiyat motivatsiyasida lokus nazoratining o‘rni hanuzgacha chuqur tadqiq qilinmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari psixolog olimlaridan K.A.Abulxanova, N.V.Annenkova, N.E.Arkelov, A.Bandura, A.A.Bodalev, L.A.Golovey, Y.V.Kamneva, N.A.Kondratova, Y.V.Krutix, I.O.Krushelniskaya, D.A.Leontev, K.Muzdibayev, S.K.Nartova, T.V.Ogorodova, I.A.Panarin, V.V.Pryadein, Z.I.Ryabikina, V.B.Tokareva, X.Xekxauzen, Y.M.Vechkanova, M.S.Yaniskiy, V.D.Shadrikov, A.A.Shirvanov va L.L.Chivanova va boshqalar

tomonidan lokus nazoratining shaxs motivatsiyasi va faoliyatiga ta'siri, bu omilning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o'rni keng tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan E.Boumel, G.Bir, K.Dvek, D.S.Gorman, V.A.Jonson, A.Kaspi, X.M.Lefkort, D.Masumoto, B.Ogilvi, R.Plomin, A.Rean, D.Rismen, J.Rotter, M.Seligman, S.Tayer, D.Uotson, F.U.Vessman, R.Vulri va D.Xirota va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, lokus nazoratining shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatdagi maqsadlarni belgilash va ularga erishishdagi o'rni haqida chuqur bilimlar beradi. Ularning ilmiy izlanishlari, lokus nazoratining muvaffaqiyatga erishishdagi ahamiyatini isbotlab, bu sohadagi tadqiqotlarga yangi nazariy va amaliy yondashuvlar kiritishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilarning ishlari, lokus nazoratining insonning shaxsiy rivojlanishi va professional muvaffaqiyatlari bilan bog'liq ta'sirini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi talabalar o'quv motivi va muvaffaqiyatiga lokus nazoratning psixologik ta'sirini aniqlash va ichki lokus nazoratini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarda tashqi va ichki lokus nazoratning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning farqlanish omillarini ilmiy asoslash;

talabalarda lokus nazoratning o'quv motivatsiyasiga ta'siri mavjudligini aniqlash va uning talabalar ta'lim faoliyatiga ta'sirini ilmiy jihatdan dalillash;

talabalarda lokus nazoratining muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga ta'siri mavjudligini aniqlash va uni ilmiy asosda isbotlash;

ichki lokus nazoratni rivojlantirishga qaratilgan psixologik dastur va treninglarni ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat tibbiyot instituti va Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutlarida tahsil olayotgan 183 nafar 1-2-bosqich talabalari, 174 nafar 3-4-bosqich talabalari, jami 357 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini lokus nazoratning talabalar o'quv motivi va muvaffaqiyatiga ta'sirining psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, Rotterning lokus nazorat darajasi aniqlash metodikasi, Y.F. Bajin, Y.A.Golinkina va L.M.Etkindning SND (YCK) metodikasi (subyektiv nazorat darajasi), T.I.Ilinning «O'quv motivatsiyasini o'rganish usullari» so'rovnomasi va T.Elersning «Muvaffaqiyat motivatsiyasini aniqlash» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik

ishonchliligini tasdiqlash uchun SPSS 27 dasturi orqali Studentning t-mezi va K. Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyentini qo'llash orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning lokus nazorati muvaffaqiyatlar, oilaviy va shaxslararo munosabatlar, ishlab chiqarish, faoliyatdagi internallikning dinamik xususiyatiga bog'liq ravishda differensial farqlanishi isbotlangan;

talabalarning o'quv faoliyati motivatsiyasi internallik bilim olishga va kasb sirasrorlarini o'rganishga, eksternallik esa diplom olishga bo'lgan motivlarni kuchli ifodalanishiga olib kelganligi tufayli lokus nazorat tipiga bog'liq namoyon bo'lishi asoslangan;

talabalarning muvaffaqiyatga intilishining darajaviy ifodalanishi internallarda faoliyatdagi muvaffaqiyat uchun o'z kuchi kuchi va mehnatiga, eksternallarda esa ta'lim jarayonidagi tashqi omillarga bog'lanib qolishning kuchli namoyon bo'lishiga asoslanib, lokus nazorat tipiga bog'liq ekanligi dalillangan;

ichki lokus nazoratni rivojlantirishga qaratilgan psixologik dastur va treninglar ishlab chiqilib, ularning samaradorligi shaxsiy o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, motivatsion jarayonlar va ta'lim faoliyatiga ta'siri ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning motivatsion faoliyati va akademik muvaffaqiyatiga lokus nazoratining ta'siri o'rganilib, natijalar asosida ularning lokus nazorati turlarini aniqlash hamda o'quv jarayoni samaradorligini baholash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ichki lokus nazoratini rivojlantirishga qaratilgan psixologik dasturlar va treninglar ishlab chiqilgan hamda ularning samaradorligi amaliyotda aprotatsiya etilgan;

ichki lokus nazoratini shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar hamda psixologik strategiyalar ishlab chiqilgan va aprotatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning suhbat, kuzatish, anketa, lokus nazorat darajalarini diagnostika qilish, subyektiv nazorat darajalarini aniqlash, o'quv va muvaffaqiyat motivatsiyasini aniqlash metodikasi, shaxs xususiyatlarini aniqlash, kontent-tahlil, t-mezi va ma'lumotlarni qayta ishlash SPSS dasturi vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati lokus nazoratining talabalarning o'quv motivi va muvaffaqiyatiga ta'sirini chuqurroq anglash imkoniyatini beruvchi nazariy modelni ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Ushbu tadqiqot talabalarning motivatsion faoliyatini boshqarish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni chuqurlashtirib, bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayonida, shuningdek, psixologik xizmat asoslari, psixodiagnostika, va psixologik trening dasturlarini yaratishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan nazariy asosni taqdim etganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talaba-yoshlarning o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi muvaffaqiyat motivlarni va talabalarning ichki lokus nazorat darajalarini

rivojlantirish bo'yicha tayyorlangan samarali trening dasturini qo'llash imkoniyati bilan belgilanib, dissertatsiya ishi natijalaridan talaba-yoshlarni o'qitishda, umumiy psixologiya, psixologik xizmat asoslari, kasb psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya fanlari bo'yicha o'quv dasturi, qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlar tayyorlash jarayonida qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalar o'quv motivi va muvaffaqiyatiga lokus nazoratning psixologik ta'siri bo'yicha dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida:

talabalarining lokus nazorati muvaffaqiyatlar, oilaviy shaxslararo munosabatlar, ishlab chiqarish, faoliyatdagi internallikning dinamik xususiyatiga bog'liq ravishda differensial farqlanishi isbotlangan yangiliklar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-a-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarining ichki lokus nazoratining o'ziga xos jihatlari aniqlangan bo'lib, ular o'quv faoliyatidagi motivatsion barqarorlik, shaxsiy mas'uliyat hissi va maqsadga yo'naltirilganlik ko'rsatkichlari bilan yaqqol ifodalangan;

talabalarining o'quv faoliyati motivatsiyasi internallik bilim olishga va kasb sirasrorlarini o'rganishga, eksternallik esa diplom olishga bo'lgan motivlarni kuchli ifodalanishiga olib kelganligi tufayli lokus nazorat tipiga bog'liq namoyon bo'lishi asoslangan yangiliklar Nizomiy nomidagi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-a-son ma'lumotnomasi). Natijada ichki lokus nazoratga ega talabalarda o'quv motivatsiyasining barqarorligi, shaxsiy mas'uliyat va tashabbus ko'rsatishga intilish darajasining yuqoriligi, shuningdek, akademik faoliyatda mustaqillik va o'zini baholash ko'nikmalarining shakllanganligi aniqlangan;

talabalarining muvaffaqiyatga intilishining darajaviy ifodalanishi internallarda faoliyatdagi muvaffaqiyat uchun o'z kuchi va mehnatiga, eksternalarda esa ta'lim jarayonidagi tashqi omillarga bog'lanib qolishning kuchli namoyon bo'lishiga asoslanib, lokus nazorat tipiga bog'liq ekanligi dalillangan yangiliklar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabaning intellektual faolligi, refleksiv tafakkuri va ijodiy o'zgaruvchanlikka tayyorligi kabi psixologik ko'rsatkichlarga ijobiy ta'siri aniqlangan;

ichki lokus nazoratni rivojlantirishga qaratilgan psixologik dastur va treninglar ishlab chiqilib, ularning samaradorligi shaxsiy o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, motivatsion jarayonlar va ta'lim faoliyatiga ta'siri ilmiy asoslangan yangiliklar Nizomiy

nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiiy Markazining 2025-yil 12-maydagi PM-338-a-son ma’lumotnomasi). Natijada ichki lokus nazoratni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, ulardan O‘zbekiston Oliy attestasiya komissiyasining (PhD) dissertasiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati batafsil asoslangan bo‘lib, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan va muammoning o‘rganilganlik darajasi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniqlanib, obykti va predmeti belgilangan. Ishning ilmiy va texnologik rivojlanishning muhim yo‘nalishlariga qanday mos kelishi, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va uning amaliyotda qo‘llanilishi bo‘yicha asosli ma’lumotlar taqdim etilgan. Dissertatsiyada keltirilgan nashr etilgan ishlar va ishning tuzilishi haqida ham batafsil ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning «**Ilmiy tadqiqotda lokus nazorat va motivatsiya masalasining nazariy tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida lokus nazorat fenomenini o‘rganish bo‘yicha ilmiy nazariyalar va turli psixologik yondashuvlar tahlil qilingan. Shu o‘rinda, bir tomondan, o‘zini-o‘zi rivojlantirish masalalarining kam o‘rganilganligi, ikkinchi tomondan esa zamonaviy jamiyatda dolzarb bo‘lgan masala ekanligi haqida xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, talabalar lokus nazoratining psixologik ta’siri, uning psixologik asoslari va motivatsion faoliyat hamda muvaffaqiyat motivatsiyasining psixologik jihatlari ham yoritilgan.

O‘zbekiston psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, G.B.Amirova, X.K.Bekchanov, U.A.Butayeva, A.A.Fayzullayev, F.I.Haydarov, A.M.Jabborov, M.A.Jabborova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.Z.Ismoilova, B.R.Qodirov, A.Q.Saitova, N.Sh.Yuldasheva, R.Z.G‘aynutdinov, E.G‘.G‘oziyev, D.Shokirov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan lokus nazorat va motivatsiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari psixolog olimlaridan K.A.Abulxanova, N.V.Annenkova, N.E.Arkelov, A.Bandura, A.A.Bodalev, L.A.Golovey, Y.V.Kamneva, N.A.Kondratova, Y.V.Krutix, I.O.Krushelniskaya, D.A.Leontev, K.Muzdibayev, S.K.Nartova, T.V.Ogorodova, I.A.Panarin,

V.V.Pryadein, Z.I.Ryabikina, V.B.Tokareva, X.Xekxauzen, Y.M.Vechkanova, M.S.Yaniskiy, V.D.Shadrikov, A.A.Shirvanov va L.L.Chivanova va boshqalar tomonidan ham ushbu sohalarida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy olimlari E. Boumel, G.Bir, K.Dvek, D.S.Gorman, V.A.Jonson, A.Kaspi, X.M.Lefkort, D.Masumoto, B.Ogilvi, R.Plomin, A.Rean, D.Rismen, J.Rotter, M.Seligman, S.Tayer, D.Uotson, F.U.Vessman, R.Vulri, D.Xirota va boshqalar lokus nazorat va motivatsiyaning shaxs hayotidagi o'rnini ochib berishga bag'ishlangan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Dissertatsiyaning «Lokus nazoratining talabalar o'quv motivi va muvaffaqiyatiga ta'sirining empirik tahlili» deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan. Mazkur bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi va tadqiqot o'tkazish tartibi batafsil bayon etilgan. Ushbu bobda lokus nazoratning ichki va tashqi turlari hamda ularning motivatsion faoliyatga ta'siri empirik natijalar orqali tahlil qilinadi.

1 – jadval

**Julian Rotterning «Lokus nazorat» darajasini aniqlash metodikasi natijalari,
n=357**

Respondentlar soni	Lokus nazorat turi	Lokus nazorat		Respondentlar jinsi	Lokus nazorat natijalari	
		Sonda	% da		Sonda	% da
1-2-bosqich talabalari n=183 Yigitlar:79 Qizlar:104	Eksternallar	112	61.20	Yigitlar:	41	36.61
				Qizlar:	71	63.39
	Internallar	71	38.79	Yigitlar:	40	56.33
				Qizlar:	31	43.66
3-4-bosqich talabalari n=174 Yigitlar:82 Qizlar:92	Eksternallar	99	56.89	Yigitlar:	43	43.43
				Qizlar:	56	56.56
	Internallar	75	43.10	Yigitlar:	41	54.66
				Qizlar:	34	45.33

O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, 1-2-bosqich talabalari orasida eksternal lokus nazoratga ega bo'lgan talabalar soni 112 nafarni tashkil etdi, bu esa umumiy respondentlar sonining katta qismini tashkil etadi. Shuningdek, 71 nafar talaba internal lokus nazoratga ega. Bu shuni anglatadiki, talabalar o'z muvaffaqiyatlarini ko'proq tashqi omillar bilan bog'lashadi. Buning sababi, shaxsiy tajriba va metakognitiv strategiyalar yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlanishi mumkin. 3-4-bosqich talabalari orasida eksternal lokus nazoratga ega bo'lganlar soni 99 nafarni tashkil etdi, bu esa avvalgi bosqichlarga nisbatan kamaygan. Internal lokus nazoratga ega bo'lgan talabalarning soni 75 nafarni tashkil etdi.

Bu, yuqori kurs talabalari o'z hayotiy voqealariga nisbatan individual javobgarlikni kuchliroq his qilayotganini ko'rsatadi. Internal lokus nazoratining oshishi shaxsiy avtonomiya va metakognitiv kompetensiyalar bilan bog'liqdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, eksternal lokus nazoratga ega bo'lgan qizlarning salmog'i yuqori bo'lishi, jinsiy psixologiya va shaxsiy farqlar bilan izohlanadi. Qizlar orasida tashqi omillarga, jamiyat fikri va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga nisbatan yuqori ehtiyoj mavjud bo'lishi mumkin.

2 – jadval

Y.F.Bajin, Y.A.Golinkina va L.M.Etkindlarning SND metodikasi natijalari, Student t-mezoni asosida, n=357

Omillar	1-2- bosqich talabalari n=183		3-4- bosqich talabalari n=174		t
	M	S	M	S	
Umumiy internallik shkalasi (Io)	4,45	1,11	6,65	1,26	-2,18**
Muvaffaqiyatlar sohasidagi internallik shkalasi (Id)	4,00	1,15	6,35	1,21	-2,36**
Muvaffaqiyatsizliklar sohasidagi internallik shkalasi (In)	4,05	1,05	5,85	1,12	-1,84*
Oilaviy munosabatlar sohasidagi internallik shkalasi (Ic)	4,40	1,27	6,25	1,31	-1,97*
Ishlab chiqarish munosabatlari sohasidagi internallik shkalasi (Ip)	4,50	1,25	6,00	1,35	-1,34*
Shaxslararo munosabatlar sohasidagi internallik shkalasi (Im)	4,05	1,18	6,30	1,20	-2,28**
Salomatlik va kasallikka nisbatan internallik shkalasi (Iz)	5,60	1,05	5,50	1,01	0,26

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

M – O'rtacha arifmetik qiymat, S – Standart og'ish, t-statistik farq ko'rsatkichi

Y.F.Bajin, Y.A.Golinkina va L.M.Etkindlarning SND metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tadigan bo'lsak, tadqiqot natijalari shunday deb topildi: umumiy internallik darajasi ($t=-2,18$; $p \leq 0,01$), muvaffaqiyatlar ($t=-2,36$; $p \leq 0,01$), muvaffaqiyatsizliklar ($t=-1,84$; $p \leq 0,05$), oilaviy munosabatlar ($t=-1,97$; $p \leq 0,05$), shlab chiqarish munosabatlari va mehnat omili ($t=-1,34$; $p \leq 0,05$), shaxslararo munosabatlar ($t=-2,28$; $p \leq 0,01$) sohalarida ishonchli farqlar qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 3-4-bosqich talabalari 1-2-bosqich talabalariga nisbatan internal lokus nazorat darajasida aniq farqni ko'rsatgan. Yuqori bosqich talabalari o'zlarining hayotiy jarayonlarida va muvaffaqiyatlariga nisbatan mas'uliyatni ichki darajada sezilarli ravishda kuchaytirganlar. Bu ularning internallik (ichki nazorat)

darajasi ortganini, shuningdek, o'z taqdirini boshqarishda yuqori psixologik mas'uliyatni his qilishlarini bildiradi. Ushbu tendensiya ularning o'z qarorlarida mustaqil bo'lishlarini va shaxsiy nazorat hissini kuchaytirganini ko'rsatadi. Metodikaning muvaffaqiyatlar (ИД), muvaffaqiyatsizliklar (ИН), oilaviy munosabatlar (Ис) va shaxslararo munosabatlar (ИМ) kabi sohalardagi internallik shkalalari bo'yicha 3-4-bosqich talabalari 1-2-bosqich talabalariga nisbatan sezilarli ravishda yuqori natijalarni ko'rsatgan. Bu natijalar, yuqori bosqich talabalari o'z faoliyatlarini va qarorlarini ichki omillarga, ya'ni o'z salohiyatiga bog'lab, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni shaxsiy mas'uliyat sifatida qabul qilishlarini tasdiqlaydi. Ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, o'zaro munosabatlar va oiladagi roli ham yuqori darajada rivojlanib, shaxsiy mas'uliyat hissi va o'zini anglashda ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Shuningdek, yuqori bosqich talabalari o'zlarining shaxsiy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish orqali o'zaro aloqalarda ko'proq psixologik yetuklikka erishgan. Ularning shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy tajriba, va konfliktlarni hal qilishda yuqori darajadagi psixologik adaptatsiya ko'rsatilgan. Boshqalar bilan hamkorlikda ishlash va muloqotda o'z pozitsiyalarini himoya qilishdagi muvaffaqiyatlari, o'zaro hurmat va samarali kommunikatsiya ko'nikmalarining shakllanganligini bildiradi. Salomatlik va kasallik sohasidagi internallik shkalasi bo'yicha esa farq sezilmadi, bu talabalar salomatlik holatini o'z ichki nazoratlari orqali tushunish va qabul qilish darajasining bir xil ekanligini ko'rsatadi. Biroq, yuqori bosqich talabalari o'z hayotiy holatlariga, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan ichki omillarni (o'z kuchlari va qarorlari) ko'proq sezishadi. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy rivojlanish, motivatsiya va ichki motivatsiyaning ortishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotdan shunday xulosa qilish mumkin: yuqori bosqich talabalari turli ijtimoiy va psixologik sohalarda o'z mas'uliyatlarini yaxshiroq his qilishadi, bu esa ularning internal lokus nazorat darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu jarayon, o'z navbatida, ularning akademik faoliyat, muvaffaqiyatlar, ijtimoiy aloqalar va shaxsiy hayotlarida ko'proq mas'uliyat va ichki nazorat hissini kuchaytiradi.

3-jadvalda T.I.Ilinning «O'quv motivatsiyasini o'rganish usullari» so'rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «bilim olish» ($t=2,85$; $p\leq 0,01$), «kasbni o'zlashtirish» ($t=-2,74$; $p\leq 0,01$) shkalalarida ishonchli farqlar qayd etildi.

3-jadval

T.I.Ilinning «O'quv motivatsiyasini o'rganish usullari» so'rovnomasi natijalari, Student t-mezeni asosida, n=357

O'quv motivatsiyasi	1-2-bosqich talabalari n=183		3-4- bosqich talabalari n=174		t
	M	S	M	S	
Bilim olish shkalasi	7,78	1,10	5,98	1,25	2,85**
Kasbni o'zlashtirish shkalasi	4,66	1,20	6,33	1,15	-2,74**
Diplom olish shkalasi	6,66	1,05	6,43	1,10	0,18

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$

M – O'rtacha arifmetik qiymat, S – Standart og'ish, t-statistik farq ko'rsatkichi

1–2-bosqich talabalari tomonidan dastlabki «bilim olish» shkalasi bo‘yicha yuqori natijalar qayd etilgan ($t=2,85$; $p\leq 0,01$). Bu holat ularning kognitiv ehtiyojlari, bilishga qaratilgan ichki motivatsiyasi va epistemik faolligi yuqoriligini anglatadi. Ushbu bosqich talabalari o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va shaxsiy bilim salohiyatini kengaytirishga intilayotganlari bilan ajralib turadilar. Bu esa bilim olish jarayonining ular uchun ichki rag‘batlantiruvchi omil ekanligini ko‘rsatadi.

3–4-bosqich talabalari esa «kasbni o‘zlashtirish» shkalasi bo‘yicha 1–2-bosqich talabalariga nisbatan yuqori natijalarni namoyon etganlar ($t=-2,74$; $p\leq 0,01$).

Bu natijalar ularning kasbiy motivatsiyasi, shaxsiy o‘zini identifikatsiyalash jarayoni, hamda kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi. Ular ta‘limni nafaqat bilim olish vositasi, balki o‘z kasbiy faoliyatlarini shakllantirish yo‘lida muhim bosqich sifatida qabul qilmoqdalar. Bu bosqich talabalari o‘zlarini kasbiy rol doirasida tasavvur qilgan holda, amaliyotga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni egallashga alohida e‘tibor qaratmoqdalar. Ularning motivatsiyasi faqatgina nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, ularni kasbiy faoliyatda amaliy qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj asosida shakllanmoqda. Bu esa talabalarning o‘zini rivojlantirish ehtiyoji, mas‘uliyat hissi va o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ijobiy ishonch bilan chambarchas bog‘liq.

«Diplom olish» shkalasi bo‘yicha esa 1–2 va 3–4-bosqich talabalari o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi, ya‘ni bu motivatsiya barcha bosqichlarda barqaror saqlanmoqda. Bu holat diplom olish motivi talabalarning ongida instrumental motiv sifatida mustahkam o‘rin egallaganini anglatadi. Ular diplomni nafaqat bilim olish yo‘lidagi bosqich, balki kasbiy faoliyatga kirish, ijtimoiy maqomga erishish, va shaxsiy muvaffaqiyatga erishish vositasi deb biladilar. Shuningdek, bu motivatsiyaning davomiy saqlanishi, unda ichki va tashqi motivlar uyg‘unlashgan holda faoliyatga turtki berayotganini ko‘rsatadi.

4-jadval

T. Elersning «Muvaffaqiyat motivatsiyasini aniqlash» metodikasi natijalari, Student t-mezoni asosida, n=357

Muvaffaqiyatga bo‘lgan motivatsiyaning darajasi	1-2-bosqich talabalari n=183		3-4- bosqich talabalari n=174		t
	M	S	M	S	
Past daraja	8,96	1,31	6,13	1,23	2,56**
O‘rta daraja	11,3	1,36	13,3	1,42	-2,74**
Yuqori daraja	17,6	1,33	21,0	1,48	-3,57**

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$

M – O‘rtacha arifmetik qiymat, *S* – Standart og‘ish, *t*-statistik farq ko‘rsatkichi

T.Elersning «Muvaffaqiyat motivatsiyasini aniqlash» metodikasi dastlabki natijalariga ko‘ra muvaffaqiyatga erishish motivlarining past darajasi ($t=2,56$; $p\leq 0,01$), muvaffaqiyatga erishish motivlarining o‘rta darajasi ($t=-2,74$; $p\leq 0,01$), muvaffaqiyatga erishish motivlarining yuqori ($t=-3,57$; $p\leq 0,01$) darajalarida ishonchli farqlar kuzatildi. Metodika tahliliga ko‘ra, 1-2-bosqich talabalari muvaffaqiyatga

erishish motivatsiyasining past darajasida yuqori natija ko'rsatgan ($t=2,56$; $p\leq 0,01$), bu esa 3-4-bosqich talabalari intiluvchanlik darajasi bilan ajralib turishini ko'rsatadi. Ular maqsad sari ongli harakat qilib, o'quv va kasbiy rivojlanish, kelajakni rejalashtirishda yuqori motivatsiyani namoyon etishadi. Motivatsiyaning o'rta darajasi bo'yicha ham 3-4-bosqich talabalari yuqori natija qayd etgan ($t=-2,74$; $p\leq 0,01$), bu esa kurs ortishi bilan muvaffaqiyatga bo'lgan ongli yondashuv kuchayishini bildiradi. Yuqori bosqich talabalari strategik rejalashtirish, vaqtni boshqarish va murakkab vazifalarni hal qilishga ko'proq moyillik bildirgan. Shuningdek, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining yuqori darajasida ham 3-4-bosqich talabalari ustunlik qilgan ($t=-3,57$; $p\leq 0,01$). Ularning ko'pchiligi shaxsiy va kasbiy rivojlanishga kuchli intilish bilan ajralib turadi. Bu bosqichda talabalar tajribasi va dunyoqarashi kengayib, ularda mustahkam ichki va tashqi motivatsiya shakllangani kuzatiladi. Ichki motivatsiya – o'zini rivojlantirish, bilim olish ehtiyoji, tashqi omillar bilan uyg'unlashib, ularni yanada muvaffaqiyatga undaydi.

5-jadval

«Lokus nazorat darajasi» va «O'quv motivatsiyasini o'rganish usullari» o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari, Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha, n=357

Lokus nazorat	O'quv motivatsiyalari		
	Bilim olish shkalasi	Kasbni o'zlashtirish shkalasi	Diplom olish shkalasi
Ichki lokus nazorat	0,68*	0,63*	0,15
Tashqi lokus nazorat	0,11	0,12	0,79*

*Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$*

«Lokus nazorat darajasi» hamda «O'quv motivatsiyasini o'rganish usullari» metodikalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalariga ko'ra, ichki lokus nazorat (internallar) hamda bilim olish ($r=0,68$; $p\leq 0,05$) shkalasi bilan, shuningdek kasbni o'zlashtirish ($r=0,63$; $p\leq 0,05$) shkalasi bilan, tashqi lokus nazorat esa diplom olish ($r=0,79$; $p\leq 0,05$) shkalasi bilan ijobiy bog'lanishlar kuzatildi.

Tadqiqot davomida ichki lokus nazoratga ega bo'lgan talabalarda bilim olish motivatsiyasi bilan ijobiy korrelyatsiya aniqlangan ($r=0,68$; $p\leq 0,05$). Bu shuni ko'rsatadiki, internallar ta'lim jarayonida faol ishtirok etib, bilimga bo'lgan qiziqish va intilishda yuqori darajada namoyon bo'ladilar. Ular ta'limni shaxsiy va kasbiy o'sishning ajralmas qismi sifatida qabul qilib, o'z faoliyatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishadi. Shuningdek, ichki lokus nazorat bilan kasbiy motivatsiya o'rtasida ham ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi ($r=0,63$; $p\leq 0,05$). Bunday talabalar kasbiy maqsadlariga erishishda o'z bilim va qobiliyatlariga tayanib, tashabbuskorlik, mas'uliyat va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadilar. Aksincha, tashqi lokus nazoratga ega bo'lgan talabalarda diplom olish motivi bilan kuchli ijobiy korrelyatsiya kuzatildi ($r=0,79$; $p\leq 0,05$). Eksternallar asosan tashqi omillar — o'qituvchi, ota-ona yoki jamiyat talablari asosida harakat qiladilar va o'z muvaffaqiyatlarini tashqi sharoitlarga bog'laydilar. Ular uchun baholar va tashqi rag'batlar asosiy motivatsion omillar hisoblanadi.

«Lokus nazorat darajasi» va «Muvaffaqiyat motivatsiyasi» metodikalari oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻlanish natijalari, Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti boʻyicha, n=357

Lokus nazorat	Muvaffaqiyat motivatsiyasi darajalari		
	Past daraja	Oʻrta daraja	Yuqori daraja
Ichki lokus nazorat	0,15	0,64*	0,96**
Tashqi lokus nazorat	0,63*	0,16	0,11

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

